

2025-yil, may 10-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

**Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri
HILOLA UMAROVA:**

*...Bugun chalinadigan
so'nggi qo'ng'iroq sadolari
bir umrga yuragingizdan
joy olishiga ishonaman.
Uning jarangdor sadolari
hamisha beg'ubor yoshlik
va o'quvchilik davringizni
yodga solib turishi
shubhasiz.*





DOLZARB MAVZU

Ra'no RAJABOVA,
BuxDU Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti (PhD)

ALLA JANRI STILIZATSIYASI

Annotatsiya: maqolada o'zbek bolalar adabiyotida o'zbek folklorining alla janrini keyinchalik yozma adabiyotda bevosita stilizatsiya qilish asosida uning badiiy shakli va ifoda uslubi, obraz va motivlaridan har bir ijodkor individual tarzda o'ziga xos mahorat bilan foydalanib, betakror stilizatsion folklorizmlar yaratganligi bilan bog'liq fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: folklor janrlari, stilizatsiya, alla, bolalar adabiyoti, stilizatsion folklorizm.

Аннотация: в статье излагаются идеи, связанные с тем, что в узбекской детской литературе на основе прямой стилизации узбекского фольклорного жанра в письменной литературе каждый творец индивидуально использовал его художественную форму и стиль выражения, образы и мотивы со своим неповторимым мастерством, создавая неповторимые стилизованные фольклоризмы.

Ключевые слова: фольклорные жанры, стилизация, алла, детская литература, стилизованный фольклоризм.

Annotation: the article presents ideas related to the fact that in Uzbek children's literature, based on direct stylization of the Uzbek folklore genre in written literature, each creator individually used its artistic form and style of expression, images and motifs with his own unique skill, creating unique stylized folklorisms.

Key words: folklore genres, stylization, Alla, children's literature, stylized folklorism.

Kirish. Yozma adabiyotda doston, ertak, naql, afsona, rivoyat, qo'shiq, yor-yor, yig'i-yo'qlov (marsiya), alla, topishmoq, tez aytish, hukmlagich, erkalama singari folklorning qator janrlari stilizatsiyasi kuzatiladi.

XX asrga kelib, folklor va yozma adabiyot munosabatining yangi pog'onaga ko'tarilganligi bolalar adabiyotida xalq ertak, alla, topishmoqlarining ma'lum yozuvchi va shoirlar tomonidan zamonaga moslab qayta ishlanishi, ya'ni stilizatsiya qilinishida ham namoyon bo'ldi. Shu tariqa folklorga aloqador bu janrlar yozma adabiy janrlarga ham aylantirilib, shaklan va mazmunan zamonaviylashtirilgan bolalarbop ertak, topishmoq va allalarning muallifli matnlari paydo bo'ldi.

Kattalar adabiyotidan ko'ra bolalar adabiyotida folklor janrlari, obraz va motivlariga murojaat yanada ko'proq kuzatiladi. Xususan, bolalar folkloriga aloqador alla, erkalama, hukmlagich, shuningdek, ham kattalar, ham bolalar folkloriga tegishli ertak, topishmoq, tez aytish singari janrlarning shakli, ifoda uslubi, obraz va motivlariga ayrim ijodkorlar qayta ishlov berishi natijasida stilizatsion folklorizm ko'rinishlari paydo bo'ladi.

Bolalar adabiyotida bolani erkalab uxlatish mazmunida, xalq allalari ohangida, ularga xos "alla" takrorini keltirish va bu so'zni she'r yoki qo'shiq sarlavhasi darajasiga ko'tarish orqali yaratilgan yozma allalar ham alohida o'ringa ega. Ularning ham ayol, ham erkak ijodkorlar tomonidan yaratilgan ko'rinishlari uchraydi.

Bolalar adabiyotida bolalar folklorining eng keng tarqalgan janrlaridan biri allaning stilizatsiyasi ham ancha kuchli. Saida Zunnunova tomonidan stilizatsiya qilingan quyidagi allada [1] har to'rtlik banddan so'ng xalq allalari kabi refren ko'rinishidagi "Uxla, yulduzim, alla" yoki "Uxla, qunduzim, alla" satri saqlangan.

Oyni olib beraymi?

Gullar terib kelaymi?

Atrofigda o'rgilib,

Shamol bo'lib yelaymi?

Uxla, yulduzim, alla.

Oyning shu'lasi suvda,

Hamma narsa uyquda.

Mehrim tovlanib ketib,

She'r yozgim kelar juda.

Uxla, kunduzim, alla.

Allalar, odatda, ayollar repertuarida uchraydi va bolani uxlatish uchun onalar yoki buvilar, ba'zan otalar, opa yo akalar tomonidan kuylanadi. Demak, allalarni erkaklar ham aytishi mumkin. Bunday allalar haqida birinchi bo'lib G'oz Olim Yunusov 1926- yilda "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalidagi maqolasi orqali ma'lumot bergan hamda ularning xalq orasida "huyalar" deb yuritilishini bildirib o'tgan.

Oydin Hojiyeva "Alla" nomli she'rini "Xalq ohangida" degan yozuv bilan maxsus ajratib ko'rsatgan [2.19]. Darhaqiqat, she'r xalq allalari ohangida yaratilgan. Unda bola "ikki ko'zning aymog'i", "yurakning qaymog'i", "xudo bergan chiroq", "kaklikchaday sayroqi", "ro'moldagi tumor", "qizil gulning payvandi", "bog'dagi qirmizi lola", "kissadagi mayiz", "yangi chiqqan oy", "ipakdan mayin" kabi xalqona sifatlashlar bilan erkalangan. Uning beshigini qo'sh farishta qo'riqlashi istagi izhor qilingan. Xususan, 5 band, 25 misradan tashkil topgan ushbu alla matnining oxirgi beshligidagi quyidagi misralar bevosita olqishlarga yo'g'rilgan xalq erkalamlaridan hech bir o'zgarishsiz olinganligi bilan e'tiborni tortadi:

Kadining bog'i uzilsin-o, ko'royin,

Kelincha bo'lib suzilsin-o, ko'royin [2.19].

Yana shuni aytish kerakki, she'rning ilk beshligida "alla" takrori birinchi, ikkinchi va beshinchi, so'ngra har

beshlikning oxirgi misrasida keltirilgan bo'lsa, "alla-yo" takrori ilk beshlikning hamda har beshlikning to'rtinchi misrasi yakunida keltirilgan.

Qizig'i shundaki, alla janri stilizatsiyasi nafaqat ayol, balki erkak shoirlar ijodida ham kuzatiladi. Masalan, Zafar Diyorning "Ona allasi" qo'shig'i ham bunga misoldir. Yana Safo Ochil qalamiga mansub alla matni ham bor. Bu alla uchta to'rtlik banddan (jami 12 misradan) iborat bo'lib, ushbu bandlarni bir-biriga ikkilik ko'rinishidagi quyidagi refren hech o'zgarishsiz takrorlanib o'zaro bog'lab kelgan:

"Ayni kechki palla-yo,
 Qo'g'irchog'im alla-yo" [3.15].

Biroq Sadridin Salim Buxoriy ijodiy merosida uchraydigan "Sitorabonu allasi" nomli she'rda "allayo-alla" takrori har bir satr oxirida takroran keltirilgan:

Tashqarida uvillar shamol, allayo-alla. = 14
 Yo'ling bo'lsin doim bezavol, allayo-alla. = 14
 Beshigingning tumori hilol, allayo-alla. = 14
 Yillar o'tib etasan safar, allayo-alla, = 14
 Dunyoda ko'p ekan xavf-xatar, allayo-alla, = 14
 Dunyoda ko'p o'q-yoy va xanjar, allayo-alla. = 14
 Na sipoh bo'l o'g'lim, na podshoh, allayo-alla, = 14
 Na jahongir va na bir askar, allayo-alla, = 14
 Men tun-u kun etaman duo, allayo-alla, = 14
 Xalq dardidan bo'lgil boxabar, allayo-alla. = 14
 Shunda senga kor etmas xanjar, allayo-alla, = 14
 Sendan yiroq bo'lsin xavf-xatar allayo-alla [4.29]= 14

Ushbu alla ham xalq allalari kabi olqish ruhida yaratilgan bo'lib, sarlavhasidan u go'yo qiz bola Sitorabonuga bag'ishlanganday, ammo matn bilan tanishgach, uning Sitorabonu tomonidan o'g'liga kuylanayotgani anglashiladi.

Ma'lumki, qiz bolalar o'yin faoliyatida qo'g'irchoq o'ynash va ularga alla aytish holati ko'p kuzatiladi. Shu holatni e'tiborga olib, ba'zi bolalar shoirlari inson, ayiq

siymolaridagi qo'g'irchoqlarga aytiladigan alla matnlarini yaratgan. Bunga bolalar shoiri Nabijon Ermatning "Ayiqbeka allasi" she'rini misol keltirish mumkin:

Archazor adirlarda,
 Aylanib adashmangiz.
 Adangizni ardoqlang,
 Ayangizni ayangiz.
 Ayiqchalarim, alla-yo alla!
 Asallarning asillari,
 Archazorda aslida.
 Ayiqvoylar azaldan,
 Ah, asalga asir-da.
 Azizlarim, alla-yo alla [5.48].

Har bir so'zi "a" harfi bilan boshlangan jumladan tarkib topgan hamda to'rtta besh misralik banddan iborat yigirma satrlik ushbu allada bolalarga ayiqlarning archazor o'rmonlarda yashashi, asalni juda yoqtirishi haqida alohida tushuncha berib o'tilgan.

Shu o'rinda aytish kerakki, barcha "Alla" sarlavhali she'rlarda alla so'zining takrori uchrayvermaydi. Ularning sarlavhasi va uxlatishga qaratilgan mazmunidagina alla matni ekanligini anglash mumkin. Bunga H.Imomberdiyevning "Alla" she'ri misol bo'la oladi:

– Uxla, Olabo'ji-voy,
 Ko'rsatgan qorasini. –
 Odam shunday qo'rqitib,
 Uxlata bolasini [6.16].

Xullas, o'zbek xalq og'zaki ijodiga xos alla, kelin salom, erkalama, hukmlagich, tez aytish, ertak, topishmoq singari qator janrlar bolalar adabiyotida keng stilizatsiya qilib kelinayotganligi kuzatiladi. Ularning badiiy shakli va ifoda uslubi, obraz va motivlaridan har bir ijodkor individual tarzda o'ziga xos mahorat bilan foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зуннунова Саида. Нилуфар. Шеърлар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. Б.200.
2. Ҳожиёва О. Алла / Паноҳим: Шеърлар ва ҳикоялар. – Т.: Шарқ, 1998. Б.19.
3. Сафо Очил. Бургут. Шеърлар. – Т.: Ўқитувчи, 1991. Б. 15. (224).
4. Бухорий С.С. Ситорабону алласи /Оққушим. Шеърлар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт санъат нашриёти, 1988. Б.29.
5. Набижон Эрмат. Фаройиб қўшиқлар. (Матн): шеърлар. – Т.:Турон замин зиё,2017. Б.48
- 6.O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik. I. She'riyat. – Т.: "O'qituvchi" NMIU, 2009. Б.16.

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liq Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruza Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,
Gulsanam Xolikulova, Komiljon Qarshiyev,
Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev,
Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova,
Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova,
Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova,
Oqila To'raqulova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika
hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Farangiz Umarova. Zarina Islamova. Zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari	3
Saodat Eshpulatova. Shoir qalbli munaqqid	6
Oqiljon Mavlonov. Navoiy ma'naviy olamiga yo'l	9
Nilufar Namazova. Matbuotning yashovchanlik immuniteti	12

TILSHUNOSLIK

Sharifaxon Iskandarova. Mushtariy Begmuhammadova. Holat fe'llarining semantik tuzilmasi: o'zbek va ingliz tillarining solishtirma tahlili	15
Xavasxon Shokirova. Presuppozitsiya va tagma'no	17
Akbarjon Xasanov. Semantik asimmetriya masalasi va unga antroposentrik yondashuv	21
D.A.Islamova. S.A.Xayrullayeva. Ravish so'z turkumida ko'chish hollari	24
Zumrad Gafarova. Matnlar korpusi tilshunoslik tadqiqotlari obyekti sifatida	27
Kamolaxon Oripova. "Konsept" lingvokulturologik tahlilning obyekti sifatida	30
Dildora Nizomiddinova. Muzayana Xolmatova. Xalq tarixini o'rganishda etnotoponimlarning ahamiyati	32

ADABIYOTSHUNOSLIK

Gulnoza Kurbonova. Ruxshona Erkinova. Yapon bolalar adabiyotida "Koinot" konseptining qiyosiy tahlili	36
Oydin Tuychiyeva. Faxriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin" tazkirasida Bahromgur, Rudakiy va Sulton Sanjarlar timsoli	40

Nigora Haytaliyeva. O'zbek shoiralari she'riyatida obraz va ramziylik.....	43
Наталья Петрухина. Специфика воплощения родового карамазовского начала в романе Достоевского «Братья Карамазовы».....	47
Насиба Ниязова. Узбекская лирика военной поры в творческой палитре Гафура Гуляма	49
Mukhlisakhon Okhunova. The concept of the human in novel “Night and day” by Cho'lpon.....	52

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA

Muxlisa Sabirova. Internet matnlarida varvarizmlarning qo'llanishi.....	56
Shirin Sadikova. Shirin Sharasulova. O'zbek tilini intensiv o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan matnlarni tanlash va qo'llash usullari.....	58
Shaxista Buranova. O'quvchilar nutqidagi mahalliy sheva sharoiti ta'siridagi xatolar tahlili va bartaraf etish usullari	61
Rayxona Tillayeva. Adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn ustida ishlash metodologiyasini takomillashtirish	64
Malika Ergasheva. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishning samarali usullari	67
Shaxobiddin Abdullayev. TikTok, twitter, instagram: ularning zamonaviy tildagi rolini taqqoslash	69
Малуда Исманова. Муслима Жабборова. Особенности работы с билингвами при изучении русского языка	71
Руниза Шакирова. Сравнительный анализ традиционных и вербально- графических технологий обучения языку	75
Регина Раджапова. Практическое применение приемов «диаграмма венна», «двухчастный дневник» при изучении темы «стилистическая система русского языка».....	78
Xolbuta Xujanov. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi	81
Manzura Orziyeva. Dars samaradorligini oshirishda interfaol usullarning o'рни	83
Musharraf Abdulxayeva. Yulya Lutfullina. Bo'lajak o'qituvchilarda yozma nutqni shakllantirishda ona tili o'qitish metodikasi fanining o'рни	86

Tadqiqotlar

Mohira Umarova. O'zbek tilidagi realiyalar hamda ularning urdu tilidagi tarjimalarda ifodalanishi.....	89
Ravshanjon Madumarov. O'zbek tilida tanbehni ifodalovchi nolisoniy vositalar	91
Shaxlo Qurbonova. Kelajak va ezgulikka ishonchning yo'qolishi – “Yo'qotilgan avlod”ning eng mudhish fojiasi sifatida	93
Ra'no Rajabova. Alla janri stilizatsiyasi.....	96
Gavhar Rustamova. Daraxtlar bilan bog'liq obrazlarning diniy-ilohiy manbalardagi ifodasi	98
Barnoxon Shamsiyeva. Tarjimada adaptatsiyaga murojaat.....	100
Muyassar Navruzova. Kasallik va tibbiyot bilan bog'liq toponimlarning til va madaniyat nuqtayi nazaridan tadqiqi xususida.....	102
Dilnoza Sobirova. Tibbiyotga oid reklama matnlarida uslubiy figuralarning o'рни	105
Nodir Ramazonov. Gulbika Sultanova. “Shum bola” asarining nashrlararo ba'zi leksik va uslubiy tafovutlari.....	108
Alisher Parmonov. Kinoyaning nutqiy faoliyat elementi sifatidagi umumiy xususiyatlari	111
Shahnoza Muhammadiyeva. Milliy uyg'onish davri adabiyoti rivojida Abdulla Avloniy ijodining ahamiyati.....	114
Nargiza Uzoqova. Abdulla Avloniy ijodida ilm talqini.....	116
Guli Qodirova. Abdulla Avloniy she'riyatini 5-sinf o'quvchilariga o'rgatishning zamonaviy usullari: “Vatan” she'ri misolida	118
Dilso'z Tursunova. Gadoiy she'riyatining vazn xususiyati.....	120
Dilfuzaxon Saidqodirova. Terminning so'z sifatidagi leksik ma'nosi.....	122
Saida Mamatkulova. Zebogul Nazirjonova. Inligiz tilida grammatik normadan chetga chiqishlar: lingvistik tahlil.....	124
Дилбар Дуйсабаева. «Қара» концептісінің элеуметтік-мәдени метафорикасы.....	126
Амина Фаттахова. Академическое письмо как фактор формирования научной идентичности.....	129

Гульмира Мамаджанова.

Концепт как единица языкового сознания:
теоретические подходы и интерпретации
в русской лингвистике 132

Dilnoza Narziyeva.

Tohir Malik hikoyalarida mehmondo'stlik bilan
bog'liq ramziy va hajviy belgilar ifodasi..... 134

Kumushoy Maxmudova.

Tohir Malik asarlarining g'oyaviy-
badiiy xususiyatlari 137

Shohida Mo'minova.

Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida
axloqiy tarbiya masalalari 139

Dilovar Nurmuradova.

O'zbek romanlarida urush mavzusi:
g'oya va talqin..... 142

Umid Mamashoyev.

Ideal jamiyatda mukammal inson
konsepsiyalarining milliy va jahon
adabiyotidagi qiyosiy tahlili 144

Sayida Abdiyeva.

Miqdor ifoda birliklarining tarjimai
muammolari..... 147

Dilafruz Berdiyeva.

Toponimlar asrlar mevasi, geografik nomlar
turli davrlar guvohi 150

Dilafruz Xaydarova.

Diplomatik atamalar tahlili va diplomatik
terminologiyaning tilshunoslikdagi o'rni 153

Parizod Ko'chimova.

Qadriyat konseptlarini tadqiq qilishning
uslubiy apparati 156

Nargiza Amirqulova.

Frazeologizmlar tarkibidagi qo'shma so'zlarning
polisemantik xususiyatlari..... 159

Latofat Ziyatova.

O'zbek xalq og'zaki ijodidagi onomastik
birliklarning o'rganilishi 162

Dilshodbek Xakimov.

Diniy so'zlarning o'zbek tilidagi qo'llanilishi va
ularning dinga oid guruhlanishi..... 164

Lola Mannobova.

Globalashuv davrida o'zbek tiliga kirib kelayotgan
terminlar va ularning lug'aviy-derivatsion
xususiyatlari..... 167

Shaxlo Bazarova.

Pak Van So ijodida ayollar taqdiri
va feministik qarashlar..... 170

Dilnoza Baxranova.

Gulhayo Tulqinova.
Koreys tilida o'zlashma so'zlarning
lisoniy tahlili 173

Gulbanu Kumakbayeva.

Qozoq tili madaniy leksikasining semantik va
funktional tahlili 175

Kamola Hasanova.

Ingliz tili darslarida til o'rganish usullarini
tanlashda o'quvchining temperament
xususiyatlarining ta'siri..... 177

Ozodaxon Kuchkarova.

"Yaxshilik va yomonlik" binar oppozitsiyasining o'zbek
va ingliz tillarida verbalizatsiyasi..... 179

Nargiza Ernazarova.

Gender va nutq: erkak va ayolga xos
tabriklar va tilaklar..... 181

Nigora Nizamiddinova. Shuxrat Utayev.

Nutqning pragmatik xususiyatlari va uning ijtimoiy
kommunikatsiyadagi o'rni 185

Faxriddin Yakubov.

O'zbek siyosiy diskursida kognitiv
metaforaning ahamiyati 187

Salohiddin Raxmonov.

Ornamental janr namunalarida
lingvokulturologik xususiyatlar 189

Suhrob Abdusalimov.

Osmon va yer konseptining qiyosiy-tipologik
xususiyatlari..... 192

Gulchexra Holikulova.

Sintaktik aloqaga kirishgan so'zlar orasidagi
munosabatlar..... 194

Роза Кенжебаева.

Арал жайлы аза жыр 196

Feruza Botirova.

Erkin A'zam qissalarida folklorizmning
o'ziga xos xususiyatlari..... 200

Fanuza Adilova.

Xayriddin Sultonning "Saodat sohili" qissasida
badiiy tragizm 203

Dilnoza Ibrogimova.

Mahmud Qoshg'ariyning
"Devonu lug'otit-turk" asarida
kasb-hunar leksikasi 205

Xurshida Ro'ziyeva.

Tilshunoslikda frazeologik sinonimlar
tadqiqiga doir 209

Maftuna Abdunazarova.

Dialogik diskursda presuppozitsiya 212

Aziza Umurzaqova.

O'zbek tilida "sadoqat" konseptining
semantik strukturasi..... 215

Dildora Husanova.

Sinonim lug'atlarida prototip nazariyasi asosida ko'p
ma'noli so'zlarning leksikografik talqini..... 217

Iroda Safarova.

Tarjimada soxta do'stlar fenomeni: yuridik matnlar
misolida xitoy-o'zbek til juftligi tahlili 220

Shoxsanam Nurillayeva.

Olmoshlar sodda gaplarni murakkablashtiruvchi
vosita sifatida..... 223